



KORRUPSIYA – MAMLAKAT KELAJAGINING TANAZZULI

Alimov Elmurod Erkinovich

Toshkent shahar IIBB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi bo'linmalari
Yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq ishlarni yuritish bo'limi boshlig'i
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8434549>

ARTICLE INFO

Received: 03rd Oktober 2023

Accepted: 11th Oktober 2023

Online: 12th Oktober 2023

KEY WORDS

Davlat, jamiyat, korrupsiya, moliya, iqtisod.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda davlat va jamiyat kelajagining tanazzuli bo'lmish – korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosda va respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan huquqshunos olimlar fikr-mulohazalari o'rganilgan.

Korrupsiya davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, inson huquq va erkinliklari buzilishiga olib keladi, barcha jamoatchilik institutlarining normal faoliyat yuritishi va mexanizmiga putur yetkazadi, jamiyatda davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlikni vujudga keltiradi hamda mamlakat xavfsizligiga xavf tug'diradi, shuningdek, mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat boshqaruvi va tadbirkorlikning samaradorligini pasaytiradi, investitsion muhitni yomonlashtiradi, ijtimoiy tengsizlik keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda davlat va jamiyat kelajagining tanazzuli bo'lmish – korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Korrupsiya so'zi, lotincha «corruptio»dan olingan bo'lib, «sotib olish», «pora» degan ma'nolarni bildiradi¹. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi»da «Korrupsiya – shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish»² deb qayd etilgan.

Dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez takrorlanib turgan mazkur tushunchaga O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunida quyidagicha ta'rif berilgan. «Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish»³.

B. I. Ismailovning fikricha, korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq jinoyat. Korrupsiya deganda, aksariyat hollarda davlat amaldorlari

¹ Юридик энциклопедия. – Т., 2001. – Б. 84.

² Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 г.).

³ Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <http://lex.uz>.



tomonidan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi⁴.

Bugungi kunda dunyo miqyosida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllanib bormoqda. Xususan, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995 y.), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996 y.), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997 y.), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000 y.), BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2008 y.) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi nazarimizda.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003 yil 31 oktyabr) korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjatlardan biri bo'lib, bugungi kunda dunyoning 130 dan ortiq davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Mazkur hujjatda korrupsiya jinoyatining mohiyati ochib berilgan va unga qarshi kurash choralari belgilab qo'yilgan.

Har qanday davlat va jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy funksiyalarining talab darajasida bajarilishiga qarshilik ko'rsatishi bois korrupsiyani milliy xavfsizlikka tahdid sifatida qayd etishimiz mumkin.

Mamlakatimizda bugungi kunda yuqorida qayd etilgan ushbu illatga qarshi kurashish borasida qabul qilingan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish bilan birga, korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan milliy huquqiy baza va tizimli amaliyot yil sayin shakllanib, takomillashib bormoqda. Ya'ni, davlatimiz va jamiyatimiz kelajagining tanazzuli bo'lmish korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurash, davlat qurilishi va boshqaruvining barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish, xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan va Konstitutsiyaga asoslangan mustahkam normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi uch yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni (2017 yil 3 yanvar, O'RQ-419-son) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonining (2019 yil 27 may, PF-5729-son) qabul qilinishi hamda Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalar tashkil etilishi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaning turli ko'rinishlarini oldini olish va unga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, davlat organlari faoliyatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2008 yil 7 iyul kuni O'zbekiston Respublikasining «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga

⁴ Исмаилов Б. И. Коррупцияга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий асослари. Маъруза матни. –Т., 2013. –Б. 2.



(Nyu-york, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi qonunning (O'RQ-158-son) qabul qilinishi bilan mazkur huquqbuzarlikning oldini olish, unga qarshi kurash bo'yicha mamlakatimiz xalqaro majburiyatlarni qabul qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmini moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 20 ga yaqin moddasida korrupsiya bilan bog'liq jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samaradorlikni oshirish, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, yurtimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida, hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi⁵da belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonining 1-ilovasida «2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi» hamda 2-ilovasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Xususan, bugungi kun nafaqat dunyo miqyosida, balki mamlakatimizda ham iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiyaning turli ko'rinishlarini sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda.

Qayd etish lozimki, hozirgi tezkor zamonda davlat va jamiyat kelajagining tanazzuli bo'lmish korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi muhim o'rin tutadi. Chunki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish orqali huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga va huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosini tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, agar ma'lum bir davlatda uning organlari va mansabdor shaxslari o'rtasida korrupsiya holatlari kuchayib, rivojlanib borsa, mazkur holatga qarshi o'z vaqtida keskin choralar ko'rilmasa, mazkur davlat qanchalik qudratli bo'lmasin, yer osti va usti boyliklarga ega bo'lmasin, uning natijasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy inqiroz bilan yakun topishi tabiiydir.

Qayd etish lozimki, korrupsiya bugungi kunda jamiyatimizda fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy adolatga to'sqinlik qiladi, davlat organlariga nisbatan xalq ishonchini susaytiradi, davlatning iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, qolaversa jamiyatdagi ma'naviy muhitning buzilishiga olib keladi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <http://lex.uz>.



Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishda mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar tomonidan quyidagi amaliy tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq nazarimizda:

- mazkur yo'nalishdagi ishlarning holatini kompleks o'rganish hamda korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini tizimli va chuqur tahlil qilish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, ularning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va mazkur turdagi huquqbuzarliklarni oldini olishni ta'minlash;
- muntazam ravishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf qilish choralarini ko'rish;
- faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar tomonidan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining shaffofligini oshirish va kadrlarni shaffof tanlovlar asosida saralab olishning yangi mexanizmini joriy etish hamda yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishni davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi galdagi muhim vazifasi sifatida belgilash;
- davlat organlari va tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari va internet-resurslarda keng ko'lamdagi axborot-targ'ibot ishlarini tashkil etish.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, davlat va jamiyat kelajagining tanazzuli bo'lmish korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati har tomonlama to'liq, izchil va samarali amalga oshirilishi davlat organlariga fuqarolarning ishonchi ortishiga, davlat organlari vakolatiga kiruvchi masalalarni aniq, o'z vaqtida va xolis hal qilinishiga, pirovardida, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, xalqimizning baxtu-iqboli va farovonligi hamda mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, xalqaro obro'-e'tibori va nufuzi oshishiga va ta'minlanishiga xizmat qiladi.

References:

1. Yuridik ensiklopediya. – T., 2001. – B. 84.
2. Konvensiya Organizatsii Ob'edinennyyx Natsiy protiv korrupsii (Prinyata rezolyusiey Generalnoy Assamblei ot 31 oktyabrya 2003 g.).
3. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - <http://lex.uz>.
4. *Ismailov B. I.* Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari. Ma'ruza matni. –T., 2013. –B. 2.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - <http://lex.uz>.